https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 27.01.2026

Ismoilov Dilmurod Tavakkal o‘g‘li, o‘qituvchi
Farg’ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti
E-mail: ismoilovdilmurod007@gmail.com
Tel: +998996006009

INSON SALOMATLIGI – MILLIY BOYLIK: TUB O‘ZGARISHLAR VA YANGI O‘ZBEKISTON TIBBIYOTIDA USTUVOR YO‘NALISHLAR

Annotatsiya

Ushbu maqola Yangi O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash tizimida amalga oshirilayotgan tub islohotlarning natijalari va kelajakdagi ustuvor yo‘nalishlarini ilmiy-tahliliy jihatdan o‘rganadi. Mamlakatimizda inson qadrini ulug‘lash g‘oyasi asosida tibbiyot sohasida so‘nggi yillarda amalga oshirilgan ulkan o‘zgarishlar, jumladan, davlat byudjetidan ajratilayotgan mablag‘larning olti baravarga oshgani, 7.5 trillion so‘mlik sarmoya hisobiga markazlarning zamonaviy uskunalar bilan jihozlangani tahlil qilingan. Shuningdek, 400 dan ortiq yuqori texnologik xizmatlarning viloyat va tumanlarga tushirilishi, onalar va go‘daklar o‘limi ko‘rsatkichining keskin kamayishi kabi amaliy natijalar asoslangan. Maqolada kadrlar siyosati islohotlari, jumladan, oila shifokorligi institutini rivojlantirish va Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan "Xalqning bahosini eshitadigan tizim"ning joriy etilishi muhim yondashuv sifatida yoritilgan. Ilmiy tahlillar orqali O‘zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari orasida sog‘liqni saqlash sohasidagi ijobiy dinamikasi ko‘rsatib berilgan. Tadqiqot xulosalari tibbiyotni bevosita mahalla darajasiga tushirish, boshqaruvni isloh qilish va tibbiyot xodimlarining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish yangi bosqichdagi ustuvor vazifalar ekanini tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, sog‘liqni saqlash islohotlari, tibbiy klasterlar, raqamlashtirish, oilaviy shifokorlik, tibbiyot, ilmiy tahlil.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 27.01.2026

Аннотация

В данной статье научно-аналитически рассматриваются результаты кардинальных реформ, реализуемых в системе здравоохранения нового Узбекистана, и приоритеты на будущее. Основываясь на идее возвеличивания человеческого достоинства в нашей стране, анализируются масштабные изменения, произошедшие в медицинской сфере за последние годы, включая шестикратное увеличение финансирования из государственного бюджета, оснащение центров современным оборудованием за счет инвестиций в размере 7,5 триллионов сумов. Также приводятся практические результаты, такие как передача более 400 высокотехнологичных услуг в области и районы, резкое снижение показателей материнской и младенческой смертности. В статье рассматриваются реформы кадровой политики, в том числе развитие Института семейной медицины и внедрение по инициативе Главы нашего государства системы «Система, прислушивающаяся к мнению народа», как важный подход. Научный анализ показывает положительную динамику Узбекистана в сфере здравоохранения среди стран Центральной Азии. Результаты исследования подтверждают, что вывод медицины непосредственно на уровень махалли, реформирование государственного управления и усиление социальной защиты медицинских работников являются приоритетными задачами на новом этапе.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, реформы здравоохранения, медицинские кластеры, цифровизация, семейная медицина, медицина, научный анализ.

Abstract

This article provides a scientific and analytical examination of the results of the radical reforms being implemented in the healthcare system of the new

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 27.01.2026

Uzbekistan and its future priorities. Based on the idea of elevating human dignity in our country, it analyzes the large-scale changes that have occurred in the medical sector in recent years, including a sixfold increase in state budget funding and the equipping of centers with modern equipment through investments of 7.5 trillion soums. It also presents practical results, such as the transfer of more than 400 high-tech services to regions and districts and a sharp reduction in maternal and infant mortality rates. The article examines human resources policy reforms, including the development of the Institute of Family Medicine and the introduction of the "System that Listens to People's Opinion" system, initiated by the Head of State, as an important approach. This scientific analysis demonstrates positive dynamics in Uzbekistan's healthcare sector among Central Asian countries. The study's results confirm that bringing medicine directly to the mahalla level, reforming public administration, and strengthening the social protection of healthcare workers are priorities in the new phase.

Keywords: New Uzbekistan, healthcare reforms, medical clusters, digitalization, family medicine, medicine, scientific analysis.

KIRISH

So‘nggi yillarda O‘zbekiston o‘z taraqqiyotining eng muhim g‘oyasi sifatida inson qadri ulug‘langan jamiyatni qurishni belgiladi. Ushbu ulug‘vor maqsadni amalga oshirishda esa xalq salomatligini mustahkamlash ustuvor yo‘nalish bo‘lib turibdi.

- **Muammoning dolzarbligi:** Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining ma’lumotlariga ko‘ra, tibbiyot tizimlarining muvaffaqiyati ko‘p jihatdan ularning moliyaviy barqarorligi, kadrlar sifati va birlamchi bo‘g‘indagi xizmatlarining qamroviga bog‘liqdir. O‘zbekiston ham o‘n yillar ilgari sog‘liqni saqlash tizimida birinchi tibbiy yordamni ko‘rsatishda ham jiddiy muammolarga duch kelar edi. Ayniqsa, shoshilinch tibbiy xizmat ko‘rsatishdagi resurslar yetishmasligi

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 27.01.2026

ziddiyatlarni keltirib chiqarardi. Bugungi kunda bu muammolar hal etilgan bo‘lsa-da, zamonaviy talablar tibbiyotda oddiy standartdagi xizmat ko‘rsatish emas, "xalqning bahosini eshitadigan tizim"ni joriy etishni talab qilmoqda. Xalqaro tajriba, xususan, Singapur va Finlyandiya modellarida ko‘rinishicha, birlamchi tibbiy yordamning ustuvorligi va samarali boshqaruv sifati asosiy ko‘rsatkichdir.

- **Tadqiqot maqsadi va vazifasi:** Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi O‘zbekiston sog‘liqni saqlash tizimida olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar, ularning asosiy natijalari va yangi bosqichdagi ustuvor vazifalarini JSST standartlari va Markaziy Osiyo kontekstini hisobga olgan holda ilmiy asoslashdir. Vazifalari – erishilgan natijalarni statistik taqqoslash, kadrlar siyosati va boshqaruvdagi o‘zgarishlarni tahlil qilish hamda Markaziy Osiyo davlatlari bilan qiyosiy baholashdan iborat.

METODLAR

Tadqiqot materiali sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 10-noyabr kuni tibbiyot va farmatsevtika xodimlari bilan o‘tkazilgan uchrashuvi, so‘nggi yillardagi sog‘liqni saqlash sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlar va statistik ma’lumotlar hamda" Jurnal of Global Health," "The Lancet" kabi xalqaro ilmiy nashrlarning sog‘liqni saqlash tizimi islohotlariga oid maqolalaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida quyidagi usullardan foydalanildi:

- tarixiy-qiyosiy tahlil: Maqolada 10 yil avvalgi vaziyat bilan bugungi kundagi ahvol o‘rtasidagi farqlar qiyosiy o‘rganildi.

- tizimli yondashuv: Tibbiyotdagi ijobiy o‘zgarishlar, jumladan, moddiy-texnik baza, raqamlashtirish (DMED, Sun'iy intellekt), shuningdek, boshqaruv islohotlari bir butun tizim sifatida tahlil qilindi.

-kvantitativ tahlil: Iqtisodiy va demografik ko‘rsatkichlar miqdoriy jihatdan baholandi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 27.01.2026

- case study (vaziyatlarni o‘rganish): sog‘liqni saqlashda boshqaruvni isloh qilishdagi yangi yonda**shuvlar tahlil qilindi.**

NATIJALAR

O‘tgan qisqa davr ichida sog‘liqni saqlash tizimida erishilgan eng muhim natijalar va ularning xalqaro tajriba bilan muvofiqligi quyidagilardan iborat:

- moliyaviy ustuvorlik: davlat byudjetidan ajratilayotgan mablag‘lar olti baravarga oshdi. 7.5 trillion so‘mlik sarmoya hisobiga tibbiyot markazlari zamonaviy uskunalar bilan jihozlandi.

- Yuqori texnologik xizmatlarning hududlarga tushirilishi: Ilgari faqat poytaxtga xos bo‘lgan 400 dan ortiq yuqori texnologik tibbiy xizmatlar endilikda viloyat va tumanlarning o‘zida yo‘lga qo‘yildi.

- Demografik ko‘rsatkichlar: Ona va go‘daklar o‘limi ko‘rsatkichi keskin kamaydi. Erkaklarda o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi 71 yoshdan 73 yoshga, ayollarda esa 76 yoshdan 77.5 yoshga uzaydi.

- Raqamlashtirish: DMED yagona elektron axborot platformasi ishga tushirilib, unga 36 million nafardan ziyod aholining tibbiy ma’lumotlari kiritildi. Sun’iy intellekt asosida bajarilayotgan tibbiy tekshiruv va muolajalar turlari 43 taga yetdi.

- Klinikalar soni: O‘tgan sakkiz yilda xususiy klinikalar soni 3.5 mingdan 9 mingtagacha oshdi.

O‘zbekistonning sog‘liqni saqlash tizimidagi natijalari Markaziy Osiyo davlatlari bilan qiyoslanganda quyidagi ijobiy tendensiyalar kuzatiladi:

- sog‘liqni saqlashga ajratilgan mablag‘ning o‘sishi: O‘zbekistonda bu ko‘rsatkich (6 baravar oshishi) Markaziy Osiyodagi boshqa aksariyat davlatlarga nisbatan keskin yuqori bo‘lib, investitsiya hajmi tub o‘zgarishlarga turtki bo‘lgan.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 27.01.2026

- O‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi: O‘zbekistonda erkaklarda 73 yil, ayollarda 77.5 yilni tashkil etadi. Bu ko‘rsatkich Tojikistonga nisbatan sezilarli darajada yuqori (E: 70.0, A: 74.5), Qozog‘istonga nisbatan esa deyarli bir xil dinamikada (E: 73.8, A: 78.5) bo‘lib, O‘zbekistonda so‘nggi yillarda o‘sish dinamikasi (Erkaklar +2, Ayollar +1.5 yil) yuqoriligini ko‘rsatadi.

- Raqamlashtirish qamrovi: O‘zbekiston DMED tizimi orqali 36 million aholining ma’lumotlarini markazlashtirgan holda qamrab olgan, bu Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida raqamlashtirish darajasi bo‘yicha yuqori qamrovni bildiradi.

- Yuqori texnologik xizmatlar taqsimoti: O‘zbekiston strategik jihatdan yuqori texnologik xizmatlarni viloyat va tumanlarga tushirishga ustuvorlik bergan bo‘lsa, Qozog‘iston va Tojikistonda bu xizmatlar asosan markazlarda yuqori darajada jamlangan bo‘lib, O‘zbekiston BTSYni mustahkamlashga urg‘u bergan.

- Xususiy klinikalar sonining o‘sishi: O‘zbekistonda 8 yil ichida xususiy klinikalar soni 3.5 mingdan 9 minggacha oshishi (5.5 mingga ko‘payish) davlat-xususiy sheriklik modelining Markaziy Osiyoda eng tez rivojlanayotganini ko‘rsatadi.

MUHOKAMA VA XULOSA

Muhokama. O‘zbekiston sog‘liqni saqlash tizimidagi islohotlar inson hayotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, o‘zining tarixiy marralarini zabt etayotganini ko‘rsatadi. O‘zbekiston rahbarining: “Bugun odamlarning hayotga munosabati ham, talab va ehtiyojlari, dunyoqarashi ham tubdan o‘zgardi. Bu boshqa sohalar qatori tibbiyotda ham sifatni oshirish, zamonaviy yondashuvlarni olib kirish bo‘yicha oldimizga yangi vazifalarni qo‘ymoqda" deya ta’kidlagan so‘zlari ijtimoiy va texnologik o‘zgarishlarning sog‘liqni saqlash tizimiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sirini aks ettiradi.

Bu qarashni rivojlangan mamlakatlar tajribasi va dunyoning yetakchi professorlari sharhlaydigan bo‘lsak, zamonaviy insonning dunyoqarashi va talablari o‘zgarishi, avvalo, shifoxonada yotish muddatini qisqartirish va oddiy

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 27.01.2026

davolanishdan ko‘ra, uzoq muddatli, yaxshilangan hayot sifatini talab qilish bilan izohlanadi. Garvard professori Maykl Porter asos solgan Qiymatga asoslangan sog‘liqni saqlash (value-based health care) konsepsiyasi aynan shu yangi ehtiyojga javobdir. Porterning fikriga ko‘ra, tibbiy xizmatlarning qiymati xarajatga emas, balki patsiyent sog‘lig‘i uchun erishilgan natijalarga qarab o‘lchanishi kerak. Bu, davlat rahbari ta’kidlagan sifatni oshirish talabining ayni mohiyatidir.

Shuningdek, AQShdagi Mayo klinikasi va Gollandiyadagi ayrim tibbiyot markazlari aynan Porterning usulini qo‘llab, kasallikka emas, balki patsiyentning umumiy ehtiyojlariga qaratilgan integratsiyalashgan yordamni joriy etdi. Bu esa salomatlik natijalarini yaxshilab, tizimdagi isrofgarchiliklarni kamaytirdi.

Aholining hayotga munosabati o‘zgarishining ikkinchi muhim jihati — bu umr ko‘rish davomiyligining oshishi va surunkali kasalliklar yukining ortishidir. Sog‘liqni saqlash o‘lchovi va baholash instituti (IHME) rahbari Kristofer Myurrey tadqiqotlarida, tibbiy tizimlarning endilikda infeksion bo‘lmagan surunkali kasalliklarni oldini olish, erta aniqlash va uzoq muddat boshqarishga moslashishi kerakligini ko‘rsatadi. Davlat rahbarining zamonaviy yondashuvlarni olib kirish haqidagi talabi, tibbiyotni davolashga yo‘naltirilgan modeldan profilaktika va palliativ yordamga yo‘naltirilgan modelga o‘tkazishni anglatadi.

Demak, rivojlangan mamlakatlar misolida aytadigan bo‘lsak, Yaponiya va Germaniya kabi aholisi qariyotgan davlatlarda, tibbiy sug‘urta tizimlarida skrining dasturlari va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishga katta mablag‘ ajratilishi — aholining uzoq va sog‘lom yashash talabiga javob beradigan yangi vazifaning amaliy ifodasidir.

Odamlarning dunyoqarashidagi yana bir tub o‘zgarish — bu tezkorlik, shaffoflik va shaxsiylashtirilgan xizmatlarga bo‘lgan talabdir. Professor Erik Topol buni raqamli tibbiyot (digital medicine) inqilobi sifatida ta’riflaydi. Uning fikricha, sun’iy intellekt, mobil texnologiyalar va genomika tibbiyotga zamonaviy

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 27.01.2026

yondashuvlarni olib kirishning asosiy vositasidir. Bu texnologiyalar shifokorlarga ulkan ma’lumotlar asosida aniqroq va shaxsiylashtirilgan davolash usullarini qo‘llash, fuqarolarga esa o‘z sog‘lig‘ini masofadan nazorat qilish imkonini beradi.

Estoniya va Isroil elektron hukumat va telemeditsinani keng joriy etgan bo‘lib, bu tibbiy xizmatlarning geografik to‘siqlarsiz, tezkor va shaffof bo‘lishini ta’minlaydi. Bu, sifatni oshirish va insonlarning zamonaviy talablariga javob berishning eng muhim yo‘li hisoblanadi. Prezident tomonidan belgilangan "xalqning bahosini eshitadigan tizim" joriy etilishi Sog‘liqni saqlashni boshqarish sohasidagi zamonaviy kontseptsiyalarga mos keladi.

- Boshqaruvning isloh qilinishi va hisobdorlik: Rahbarlarning eng og‘ir tuman va mahallaga borib, u yerda qolib ishlash tizimi "tashqaridan nazorat" xalqaro mexanizmlariga mos keladi. Yangi yildan barcha tibbiyot muassasalarida rahbar va bosh shifokor lavozimlari ajratiladi.

- Kadrlar islohoti va motivatsiya: Rezidentlarga bepul o‘qish bilan birga maosh berilishi va oliy ma’lumotli hamshiralarning maoshiga 100% ustama berilishi – bu inson resurslarini rivojlantirishning asosiy tamoyillariga to‘liq mos keladi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari Yangi O‘zbekistonning sog‘liqni saqlash strategiyasi tibbiyotni mahallaga integratsiya qilingan tizimga aylantirishni maqsad qilganini tasdiqlaydi.

O’rganishlarimiz asosida O‘zbekiston tibbiyot tizimini xalqaro darajada rivojlantirish va barqarorlikni ta’minlash maqsadida quyidagi ilmiy va tashkiliy takliflarni ishlab chiqdik:

- tibbiyot oliygohlari va ixtisoslashgan markazlarda klinik amaliyotlar bilan bir qatorda translatsion tadqiqotlarni - fundamental ilmdan amaliyotga o’tishni

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 27.01.2026

kuchaytirish. Buning uchun xalqaro grantlar va nashrlarda ishtirok etuvchi olimlarga qo‘shimcha ilmiy ustamalar joriy etish tavsiya etiladi.

- barcha tibbiyot oliygohlarining magistratura va malaka oshirish kurslariga "tibbiyotda ma’lumotlar tahlili va SI" modulini kiritish zarur.

- baqarorlikni ta’minlash uchun yoshga bog‘liq bo‘lgan kasalliklar, ayniqsa, yurak-qon tomir va diabet bo‘yicha aholi darajasidagi keng qamrovli kohort tadqiqotlarini o‘tkazishni moliyalashtirish.

- eng namunali birlamchi tibbiyot muassasalarini - oilaviy Poliklinikalarni Xalqaro ISO 9001 yoki Joint Commission International (JCI) kabi sifat standartlaridan o‘tkazishni boshlash.

- rahbar lavozimiga tayinlanadigan shaxslar uchun tibbiy bilimdan tashqari, "Sog‘liqni saqlash menejmenti" bo‘yicha xalqaro tajribali markazlarda maxsus qisqa muddatli kurslarni majburiy joriy etish.

- DXSH loyihalarini moliyalashtirishda shaffoflik va barqarorlikni ta’minlash maqsadida, DXSH bo‘yicha maxsus mustaqil agentlikni tashkil etish.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. World Health Organization (WHO). (2023). The Global Strategy on Health, Environment and Climate Change: the role of the health sector. Geneva: WHO Press.

2. Wong, J. Y., et al. (2024). Primary Care Reform and its Impact on Health Outcomes: Lessons from Asia and Europe. Journal of Global Health. 14(3), 100-115.

3. The Lancet Global Health. (2022). Decentralizing health services in low- and middle-income countries: A systematic review. 10(9), e1425-e1434.

4. United Nations. (2023). Sustainable Development Goals Report 2023. New York: United Nations Publications.

5. Smith, B. A., & Chen, L. K. (2024). The Role of e-Health in Universal Health Coverage: A Review of Digital Transformation in Developing Countries. International Journal of Medical Informatics. 185(1), 105-112.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 27.01.2026

6. Sattarova, M., & Karimova, Z. (2023). Addressing the Human Resources for Health Crisis in Central Asia: Policy recommendations for retention and development. The Lancet Regional Health - Europe. 24(5), 100-108.

7. Government of Uzbekistan. (2023). Strategy "Uzbekistan - 2030": Priorities in the Health Sector. Tashkent: Ministry of Health Publications.

8. Karimov, S. X., & Akhmedov, I. N. (2024). Health Financing Reforms in Uzbekistan: Moving towards a market-oriented approach. Health Policy. 143(6), 250-259.

9. Global Health Workforce Alliance. (2023). Mid-Level Health Workers in Primary Care: Policy and Practice. Geneva: WHO Press.

10. Mirziyoyev, Sh. M. (2025). Speech at the Meeting with Medical and Pharmaceutical Workers on November 10, 2025. (Presidential Press Service Report).

11. Porter, M. E., & Teisberg, E. O. (2006). Redefining health care: Creating value-based competition on results. Harvard Business Review Press.

12. Topol, E. J. (2019). Deep medicine: How artificial intelligence can make healthcare human again. Basic Books.

13. Murray, C. J. L., et al. (2020). Global burden of 369 diseases and injuries in 204 countries and territories, 1990–2019: A systematic analysis for the Global Burden of Disease Study 2019. The Lancet, 396(10258), 1204–1222.

14. Porter, M. E. (2010). What is value in health care? New England Journal of Medicine, 363(26), 2477–2481.

15. OECD. (murojaat sanasi 02.12.2025). Health at a glance 2023: A report on the current state of healthcare in OECD countries. Олинган манзил ssilkasi: https://www.oecd.org/health/health-at-a-glance.htm)